

FIDOYI VA ZAHMATKASH FOLKLORSHUNOS OLIMA

Eshonqulov Jabbor Saliyevich

Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, Toshkent

Sarigul Bahodirova nomini bugun nafaqat Qoraqalpog‘istonda, balki turkey davlatlar, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida davrimizning yetuk folklorshunoslaridan biri sifatida yaxshi bilishadi. Sarigul opa bu nomga osonlik bilan erishgani yo‘q. Bir umrlik chekilgan zahmat, ilm yo‘lidagi fidoyilik samarasi o‘laroq yetib kelgan bu kunlarga.

Ilm yo‘li hamisha mashaqqatli bo‘lgan. Ajdodlarimiz ilm bilan shug‘ullanishni igna bilan quduq qazishga tenglashtirishgani bejizga emas. Ilmga osonlik, yengil yo‘llar bilan, qisqa fursatlarda erishib bo‘lmaydi. Ba‘zan biror mavzuni tugalroq o‘rganishga bir odamning umri yetmaydi ham.

Folklorchi bo‘lish esa yanada ko‘proq zahmat, yanada ko‘proq fidoyilik deganidir. Garchand ko‘plab kitoblar chiqarib, katta minbarlarda da‘vo qilishsa-da, hamma ham folklorchi bo‘la olmaydi. Folklorni bilish, anglash uchun bilimning o‘zi kamlik qiladi. Odamning qonida, genida bo‘lishi, u bilan yashashi, xalq og‘zaki ijodini ich-ichidan, yurak-yuragidan his etishi lozim bo‘ladi.

Sarigul opa ana shunday, qonida qoraqalpoq an‘analari oqqan, bu qadriyatlar genida yashagan, ularni yuragiga sig‘dirgan olimlardan biri. Sarigul opa yashagan muhit, ulg‘aygan oila, ustozlar sabog‘i ana shunday bir shaxsiyatni, qoraqalpoq folklorini dunyoga tanitgan zahmatkash olimani yetishtirib chiqardi.

Sarigul opaning bolaligi juda og‘ir damlarga to‘g‘ri keladi. Ikkinchi jahon urushining dahshatlari, urushdan keyingi mashaqqatlarni ko‘rgan qizaloqning ilm yo‘lini tanlashi, Qoraqalpog‘istonning Qora O‘zak tumanida o‘rta maktabni tugatgandan so‘ng, pedagogika institutining tarixiy filologiya fakultetida tahsil olishga bel bog‘laganining o‘ziyoq ko‘p narsalarni aytib turibdi. Sarigul Bahodirova bu maskanni muvaffaqiyatli yakunlab O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Qoraqalpog‘iston filialiga ishga keladi va taqdirini ana shu dargoh bilan bog‘laydi. Institutda oddiy xodimlikdan, direktorlikkacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tadi.

Folklor shunchaki badiiy so‘z namunasigina emas, balki har bir xalqning tarixi, madaniyati va san‘ati bilan chambarchas bog‘liq. Folklor barcha san‘atlarning ibtidosi hisoblanadi. Shuning uchun ko‘plab san‘atlarni, jumladan, yozma adabiyot mohiyatini ilg‘ash uchun ham dastavval xalq og‘zaki ijodi mohiyatini anglash lozim bo‘ladi.

Ustoz To‘ra Mirzayev “Har bir xalqda zamonaviy fanning turli-tuman sohalari va yo‘nalishlarining yuzaga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi o‘sha xalqning ilmiy-ma‘rifiy salohiyat darajasi, uni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishining kuchayishi kabi o‘nlab ichki va tashqi omillar bilan bog‘liq”ligini urg‘ulaydi [Mirzaev T., 2021. – 160-174]. Darhaqiqat, Sarigul Bahodirovaning akademik M.Nurmuhammedov ilmiy

rahbarligidagi ilk ilmiy tadqiqoti **“Zamonaviy qoraqalpoq hikoyalari”** («Házirgi zaman qaraqalpaq gúrrinleri (1957-1967j)») tadqiqiga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqot bilan tanishar ekansiz, aynan shu yillar qoraqalpoq nasrida o‘ziga xos bir yangilanish davri bo‘lganini kuzatasiz. Mening nazarimda, buning bir qancha sabablari bor. Birinchidan, ustoz To‘ra Mirzayev aytganidek, tarixiy zarurat, ya'ni aynan shu davrlarda qatlom zulmidan keyin bir oz bo‘lsa-da «iliqlik davri» boshlangandi. Ikkinchidan, aynan shu «iliqlik» sabab tarixiy va milliy qadriyatlar mavzusida yozish imkoniyatlari paydo bo‘lgan. Xalqning o‘z tarixi, madaniyatiga qiziqish kuchaygan. Aynan shu davrlarda ilgari qatag‘on bo‘lgan ko‘plab millat oydinlari asarlari qayta bosilib, oradan ko‘p vaqt o‘tmay yana yig‘ishtirib olingan.

O‘zbek nasrida Mirkarim Osim, Odil Yoqubov, Asqad Muxtor, she‘riyatda Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfilar misolida shuni aytish mumkinki, mana shu davr oralig‘ida adabiyotda qandaydir bir ko‘tarilish davri bo‘ldi. Keyingi badiiy yangilanishlar ildizi shu davrdagi adabiy jarayon bilan chambarchas bog‘liq.

Sarigul Bahodirova aynan shuning uchun aynan shu davr hikoyalarini tanlab olgan. Bu hikoyalarning o‘ziga xos janriy xususiyatlari va badiiyatidagi o‘ziga xosliklarni ochib berishga harakat qilgan. Olimning aynan shu mavzuga qo‘l urishiga yana bir sabab, o‘zi folklorshunos olim emas, balki, ijodkor, yozuvchi bo‘lganligi ham.

Biror bir asarning ilmiy tadqiq etilishi bilan o‘zi ijodkor bo‘lgan olimning ilmiy izlanishi tamomila farq qiladi. Sarigul Bahodirova o‘zi tadqiq qilgan hikoya namunalari ham ijodkor, ham olim sifatida tahlildan o‘tkazganki, nazarimda, hozir ham bu tadqiqotlarning ahamiyati susaygani yo‘q.

“Folklor va qoraqalpoq nasri” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida ham Sarigul Bahodirova folklor va yozma adabiyot munosabati masalalarini qoraqalpoq nasri misolida tadqiq etadi. E‘tiborli jihati, tadqiqotda ko‘tarilgan nazariy masalalar folklorshunos va adabiyotshunos olimlarning e‘tiroflariga sabab bo‘ldi.

Folklorshunoslikda nazariy masalalar hamisha dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Biroq, hamma olim ham nazariy masala bilan chuqur shug‘ullana olmaydi. Folklorshunoslikda nazariy masala bilan shug‘ullanish uchun ham nazariy ham amaliy bilim kuchli bo‘lishi kerak.

Xonada o‘tirib, kitob o‘qib, folklorshunos olim bo‘lish mushkul. Shuning uchun ustoz folklorshunoslar turli ekspeditsiyalar uyushtirib, materiallar to‘plash, tasniflash, nashrga tayyorlash kabi mashaqqatli ishlarning zahmatini tortishgan. Bir so‘z bilan aytganda folklorshunos bo‘lish hamma jabhalarida o‘z qobiliyatini namoyish eta olish, deganidir.

Sarigul Bahodirovaning to‘plovchilik, noshirlik faoliyati uning olimligi bilan chambarchas bog‘lanib ketgan.

Olimaning mehnatlari tufayli nashr etilgan “Alpomish”, “Qoblan”, “Edige”, “Qirqqiz” kabi dostonlar ko‘plab anjumanlarning asosiy mavzusiga aylangan. Bu anjuman ko‘lami va ahamiyatini xorijlik hamkasblarimiz ham ko‘p bora e‘tirof etgan.

“Folklor atamaları lug‘ati” jajjigina bir kitob bo‘lsa-da, bu lug‘at yaratilgan paytda bunday izlanish mavjud bo‘lmaganligini inobatga olsak, olima ushbu tadqiqoti bilan folklorshunoslikdagi juda katta bir bo‘shliqni to‘ldirganiga guvoh bo‘lamiz.

Sarigul Bahodirova o‘z tadqiqotlarida “Qoraqalpoq qanday xalq” degan savolni qo‘yib, shunday javob beradi: “Bizning ota-bobolarimiz ruhiy tarbiyaga ko‘p e‘tibor qilishgan. Biz moddiyatga emas, ma‘naviy boylikka moyil bo‘lgan xalqmiz. Qoraqalpoqning uyida moli bo‘lmasa ham, uyining to‘rida dutori ilig‘liq turgan... botirlikni To‘marisdan, suluvligimizni Zarinadan, muhabbatga sadoqatimizni Odatidan olganmiz. Shuning uchun sen azizsan, qoraqalpoq hayoli” [Bahodirova S., 2017. 7-b].

Kitobni o‘qish davomida muallifning o‘z xalqiga, o‘z ovuli, vataniga bo‘lgan cheksiz bir muhabbatini tuyasiz. Bu muhabbat mehr bilan, samimiyat va chuqur ilm bilan qorishib ketganligiga guvoh bo‘lasiz.

Qoraqalpoq folklori haqida gap ketganda, bu san‘atni doston ijrochilarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Jirov va baxshichilik an‘analari qadimdan yashab kelayotgan, har bir davrda o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etib kelayotgan san‘at. Bu san‘atning tadqiq etilishida N.Dauqarayev, I.Sag‘itov, Q.Ayimbetov, Q.Maqsatov kabi olimlar bilan bir qatorda S.Bahodirovaning ham alohida o‘rni bor.

S.Bahodirova so‘nggi o‘ttiz yilda eng ko‘p izlanish olib borgan mavzu bu qoraqalpoq jirov san‘atidir. Uning “Qoraqalpoq qanday xalq” kitobining beshinchi bo‘limi ana shu mavzuga bag‘ishlangan. Kitobning bu bo‘limida jirov san‘atining tarixidan tortib, bugungi ijro holatigacha keng yoritib berishga harakat qilgan. Bunda jirovlar kuylagan qahramonlik dostonining matnigagina emas, balki kuylariga ham alohida e‘tibor qaratadi.

O‘z tadqiqotlarida qoraqalpoq jirovlari qo‘bizda yuz o‘ttizdan ortiq kuy ijro etganini va ularning nomlarini sanab, zarur izohlar bilan ta‘minlab, qorishiq san‘at namunasi bo‘lgan qahramonlik dostonlarini kuy, ijro, badiiy so‘z namunasi o‘laroq tadqiq etadi. Epik ijrochi mahoratini asosli ravishda chuqur yoritib beradi. Sarigul Bahodirovaning bu izlanishlari keyinchalik germaniyalik olim Karl Rayxl tadqiqotlarining yuzaga kelishiga ham sababchi bo‘ladi va olim buni o‘z izlanishlarida haqli ravishda e‘tirof etadi.

Muallif bu kitobda nafaqat folklorshunos, balki tilchi, tarixchi va etnograf olima sifatida ham o‘zini namoyon eta olgan. Kitobdagi qoraqalpoqlardagi ot bilan ko‘hna tasavvurlar bilan birga, o‘tov, xalq o‘yinlari haqidagi qarashlarini bayon etadi.

Sarigul Bahodirovaning “Onamga xat”, “Ona haqida qo‘shiq”, “Qo‘shqarhsaq gullari”, “Esgan shamol qaytmaydi”, “O‘kinch” kabi hikoyalari, “Kechikkan askar”,

“Urushdan so‘ng”, “Hayollar”, Odamni odam baxtli qiladi”, “Inson qadri”, Ravshan”, To‘maris va Kir”, “Qanotidan qayrilgan shunqor”, “Taqdir” kabi qissa va romanlari zamonaviy qoraqalpoq nasri qiyofasinigina emas, balki xalqning tarixi, madaniyati, urf-odat va marosimlari, tafakkuridagi evrilashlar jarayonini aks ettirib bera olgani bilan ahamiyatlidir.

Ilm maydonida ham kasblar e'tirofiga erishish oson emas. Ayniqsa, xalqaro miqyosdagi e'tiroflarga. Ustozimiz, akademik To‘ra Mirzayev opaning nomini hamisha faxr bilan tilga olardi. Har ikki ustoz o‘rtasidagi munosabatlar samimiy va do‘stona edi. Bunga ko‘p bor guvoh bo‘lganman. Ustozning uylarida ham, xorijda bo‘lib o‘tgan ilmiy anjumanlarda ham bu ustozlar bilan birga ishtirok etish nasib etgan. Ustoz To‘ra Mirzayev bilan Sarigul opa, Karl Rayxl ishtirokidagi so‘nggi suhbat aynan ustozning uyida bo‘lib o‘tgandi. Germaniyada bo‘lgan kezlarimiz ham Karl Rayxl Sarigul opani tilidan tushirmasdi.

Sarigul Bahodirovaning qoraqalpoq jirovlariga bag‘ishlangan tadqiqoti Bishkekda chop etilgan “Yevrosiyo xalqlari baxshilari” nomli hammualiflikdagi kitobdan ham joy oldi. Men Sarigul Bahodirovadek olim bilan hammualiflikda kitob chop etganimda bag‘oyat g‘ururlanaman.

Sarigul Bahodirova olim, ijodkor yozuvchi sifatida folklorshunoslar, adib-u adabiyotshunos olimlar tomonidan tan olingan, hayoti, ijodi bilan ibrat bo‘lib kelayotgan ziyolilardan biridir.

Sarigul Bahodirova bugun dunyoning ko‘plab mamlakatlaridagi ilmiy jurnallar, turkologiya masalalari bo‘yicha ilmiy markazlar vakili. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti qoshidagi ixtisoslashtirilgan Ilmiy kengashi hamda Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining «Adabiy meros» jurnali tahrir hay'ati a'zosisdir.

Qoraqalpoqistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureati, filologiya fanlari doktori, professor, qoraqalpoq folklorshunosligi malikasi – Sarigul Bahodirova sohaga oid o‘zning ko‘plab maqolalari, kitoblari, ma'ruzalari, ilmiy-adabiy faoliyati bilan hamon kasbdoshlariga o‘rnak bo‘lib kelmoqda.

Bugun qoraqalpoq folklorshunosligi o‘zining tamomila bir yangi davrini boshidan kechirmoqda. Ilm-fanga ko‘plab yoshlar jalb etilyapti. Folklorning turli janrlari, rang-barang metodlar asosida tadqiq qilinmoqda. Bunda, albatta, Sarigul Bahodirovaga o‘xshash ustozlarning xizmati beqiyos.

Sarigul Bahodirovani bugungi qutlug yoshi bilan chin dildan tabriklab, yana uzoq yillar folklor ilmining zabardast darg‘alaridan biri bolib yurishini tilab qolaman.

ADABIYOTLAR:

1. Bahodirova S. Qaraqalpaq qanday xaliq. – Toshkent: Navro‘z, 2017. – 256 b.

2. Bahodirova S. To‘maris. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. –120 b.
3. Mirzaev T. Ustozlar, safdoshlar, izdoshlar. – Toshkent: Tafakkur tomchilari, 2021. – 384 b.